Qabul qilindi: 25-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 27-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 29-noyabr 2026-yil

JORJ ORWELLNING «MOLXONA» ASARIDA HOKIMIYAT VA INSON TABIATINING BADIIY TALQINI

Boymurotova O‘roltosh Ruizboy qizi

Termiz davlat pedagogika institute, O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz adibi Jorj Orwellning «Molxona» asarini badiiy va ma’naviy jihatdan tahlil qilamiz. Asarda hayvonlar tasviri orqali jamiyatdagi voqeliklar, hokimiyat uchun kurash, adolat tushunchalarining buzilishi ochib berilgan. Shuningdek, muallif tomonidan yaratilgan obrazlarning xarakteri, ularning o‘zaro munosabatlari, asarning yetakchi g‘oyalari va jamiyatda yuz beradigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tahlil etilgan. «Molxona» asari insoniyat tarixida takrorlanib keladigan adolatsizlik, tengsizlik, manfaatparastlik va mansabparastlik kabi illatlarni badiiy ifodalashi bilan alohida ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: hokimiyat, adolat, tenglik, obraz, jamiyat, inson tabiati, siyosiy satira, badiiy tahlil.

Jahon adabiyotida inson tabiatining murakkabligi, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va siyosiy jarayonlarni aks ettiruvchi asarlar alohida o‘rin egallaydi. Bunday asarlar o‘quvchini nafaqat hayotiy voqealar bilan tanishtiradi, balki uni jamiyatda yuz berayotgan muammolar haqida mustaqil fikr yuritishga ham undaydi. Jorj Orwellning «Molxona» asari ana shunday chuqur mazmun va mohiyatga ega bo‘lgan badiiy asarlardan biridir. Jorj Orwell XX asr ingliz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri hisoblanadi. Uning ijodida adolatsizlik, siyosiy tuzumning inson hayotiga ta’siri, erkinlik, haqiqat va tenglik masalalari muhim o‘rin tutadi. Adibning «Molxona» asari dastlab 1945-yilda nashr etilgan bo‘lib, chuqur ramziy ma’nolari va keskin ijtimoiy mazmuni bilan ajralib turadi. Asar voqealari fermada yashovchi hayvonlar hayoti orqali boshlanadi. Dastlab ular o‘z xo‘jayini janob

Jonsning zulmidan qutulib, ozod va erkin hayot qurishni orzu qiladilar. Hayvonlar inson tomonidan boshqarilmasdan, o‘z mehnatlari samarasidan teng foydalanishni istaydilar. Ular qo‘zg‘olon ko‘tarib, xo‘jayinlarini fermadan haydab chiqarishga muvaffaq bo‘ladilar. Dastlab barcha hayvonlar tenglik va birodarlik asosida yashashga intiladi. Biroq vaqt o‘tishi bilan ular orasida hokimiyat uchun kurash boshlanadi. Natijada dastlabki ezgu maqsadlar unutilib, adolatsizlik va tengsizlik yana yuzaga keladi.

Asarning asosiy g‘oyasi hayvonlar hayoti orqali insoniyat jamiyatidagi murakkab munosabatlarni ochib berishga qaratilgan. Muallif hayvonlar obrazlari yordamida hokimiyat, manfaat, adolat va inson tabiatiga xos salbiy xususiyatlarni badiiy tarzda yoritadi. «Molxona» asarining markazida tenglik va ozodlik g‘oyasi turadi. Fermadagi hayvonlar xo‘jayinining zulmidan ozod bo‘lib, o‘z hayotlarini o‘zgartirishga intiladilar. Ularning asosiy maqsadi mehnatlari qadrlanishi, erkin yashashlari va o‘zlari yetishtirgan mahsulotlardan teng foydalanishidir. Dastlab bu maqsad amalga oshgandek ko‘rinadi. Hayvonlar o‘z qoidalarini belgilaydilar va fermada yangi tartib o‘rnatadilar. Biroq asar davomida ozodlikka erishishning o‘zi adolatli jamiyat qurish uchun yetarli emasligi namoyon bo‘ladi. Hokimiyat asta-sekin cho‘chqalar qo‘liga o‘tadi. Ular boshqa hayvonlarga qaraganda savodliroq va boshqaruv ishlariga ko‘proq aralashadigan qatlam sifatida shakllanadi. Vaqt o‘tishi bilan esa o‘z bilim va imkoniyatlaridan umumiy manfaat uchun emas, shaxsiy manfaatlari yo‘lida foydalanishni boshlaydilar. Shu tariqa tenglik g‘oyasi asta-sekin o‘z mazmunini yo‘qotadi. Yozuvchi bu jarayonni keskin satira orqali ifodalaydi. Satira yordamida jamiyatdagi rahbarlarning manfaatparastligi, yolg‘on va’dalari, xalq ishonchidan foydalanishi hamda adolatsizligi ochib beriladi.

Muallif hayvonlar hayotini tasvirlash orqali aslida insonlar orasida uchraydigan salbiy munosabatlarni tanqid qiladi. Asardagi asosiy obrazlardan biri Napoleondir. U hokimiyatni egallashga intiluvchi, o‘z manfaatini hamma narsadan ustun qo‘yuvchi obraz sifatida gavdalanadi. Napoleon dastlab boshqa cho‘chqalar bilan birgalikda hayvonlar tengligini e’lon qilishda ishtirok etadi. Ammo keyinchalik hokimiyatni to‘liq o‘z qo‘liga olishga harakat qiladi. U raqibi Snowball fermadan haydab chiqaradi va o‘ziga qarshi fikr

bildiradigan hayvonlarni qo‘rqitish orqali boshqaruvni mustahkamlaydi. Uning xarakterida shaxsiy manfaat, hokimiyatga intilish va boshqalarga hukmronlik qilish istagi yaqqol namoyon bo‘ladi. Snowball esa Napoleon bilan qarama-qarshi xarakterga ega bo‘lgan cho‘chqa sifatida tasvirlanadi. U fermani rivojlantirish, hayvonlarning turmush sharoitini yaxshilash va ularning mehnatini yengillashtirishga intiladi. Ayniqsa, shamol tegirmoni qurish g‘oyasi orqali u kelajakda hayvonlarning hayoti yaxshilanishiga ishonadi. Biroq Napoleon bilan o‘rtasidagi ziddiyatlar sababli fermadan quviladi. Snowball obrazi orqali muallif siyosiy kurash jarayonida ilg‘or fikrlar va yaxshi tashabbuslar ham hokimiyat manfaatlari yo‘lida chetga surilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Asardagi yana bir muhim obraz — Qichqiriq u Napoleon siyosatini oqlash, boshqa hayvonlarni ishontirish va mavjud voqealarni o‘z manfaatiga mos ravishda talqin qilish bilan shug‘ullanadi. Uning eng asosiy quroli so‘z va yolg‘ondir. U hayvonlarga noto‘g‘ri ma’lumotlar berib, ularni rahbarlarning qarorlari to‘g‘ri ekaniga ishontirishga harakat qiladi. Ushbu obraz orqali yozuvchi so‘z va axborotdan odamlarni boshqarish vositasi sifatida foydalanish xavfini ochib beradi. Boksyor obrazi ham asarning g‘oyaviy mazmunini boyitadi. U mehnatkash, sodda, sadoqatli va fidoyi ot sifatida tasvirlangan. Boksyorning «Men yanada ko‘proq ishlayman» degan shiori uning mehnatsevarligini ko‘rsatadi. U fermadagi barcha ishlarni sidqidildan bajaradi va rahbarlariga ishonadi. Biroq uning mehnati qadrlanmaydi. Aksincha, kuch-quvvatdan qolganida undan shafqatsizlarcha foydalanib, so‘ng uni tashlab yuborishadi. Bu voqea jamiyatda mehnatkash insonlarning qadrsizlanishi, ularning ishonchi va sadoqatidan foydalanilishi kabi muammolarni ifodalaydi.

Asarda hayvonlar uchun belgilangan yetti qoida ham muhim ramziy ahamiyatga ega. Dastlab bu qoidalar barcha hayvonlarning tengligi va erkinligini ta’minlashga xizmat qilishi kerak edi. Ammo vaqt o‘tishi bilan cho‘chqalar ularni o‘z manfaatlariga mos ravishda o‘zgartira boshlaydilar. Ayniqsa, «Barcha hayvonlar tengdir, ammo ba’zi hayvonlar boshqalarga qaraganda tengroqdir» mazmunidagi yakuniy qoida asarning asosiy g‘oyasini ochib beradi. Bu jumla tenglik shiori ostida yangi tengsizlikning yuzaga kelganini anglatadi. Asarning yakuniy qismida cho‘chqalar insonlarga o‘xshab qoladi. Ular dastlab qarshi

chiqqan insonlar bilan birga ovqatlanadi, suhbatlashadi va bir-biridan farq qilmaydigan darajaga yetadi. Boshqa hayvonlar esa derazadan qarab, cho‘chqalar bilan insonlarning qaysi biri ekanini ajrata olmay qoladilar. Ushbu manzara asarning eng ta’sirchan ramziy tasvirlaridan biridir. Muallif shu orqali hokimiyat uchun kurashib, adolat va tenglikni va’da qilgan ayrim rahbarlar oxir-oqibat o‘zlari qarshi chiqqan zulmkor kuchlarga aylanib qolishi mumkinligini ko‘rsatadi. Molxona» asarining yana bir muhim jihati shundaki, unda inson tabiatiga xos bo‘lgan ochko‘zlik, manfaatparastlik, qo‘rqoqlik, ishonuvchanlik va hokimiyatga intilish kabi xususiyatlar hayvonlar obrazlari orqali yoritiladi. Yozuvchi o‘quvchini faqat voqealarni kuzatishga emas, balki ularning sabablarini anglashga ham undaydi. Asar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, chunki unda ko‘tarilgan adolat, tenglik, mas’uliyat va rahbarlarning xalq oldidagi burchi kabi masalalar har qanday jamiyat uchun muhimdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Jorj Orwellning «Molxona» asari insoniyat jamiyatidagi hokimiyat, adolat va tenglik munosabatlarini chuqur yoritib bergan muhim badiiy asarlardan biridir. Yozuvchi hayvonlar hayoti orqali jamiyatda yuz berishi mumkin bo‘lgan siyosiy o‘zgarishlar, hokimiyatning suiiste’mol qilinishi va inson tabiatidagi salbiy xususiyatlarni ochib beradi Asardagi Napoleon, Snowball,Qichqiriq va Boksyor obrazlari turli xarakter va dunyoqarashlarni ifodalashi bilan ahamiyatlidir. Ularning har biri orqali muallif jamiyatdagi muayyan ijtimoiy hodisalarni badiiy talqin qiladi. Ayniqsa, Boksyor obrazida mehnatkash insonning fojiasi, Napoleon obrazida esa hokimiyatga berilish va manfaatparastlik oqibatlari yorqin aks etgan. Asarning asosiy saboqlaridan biri shundaki, haqiqiy adolat faqat erkinlikni e’lon qilish bilan emas, balki barcha uchun teng huquq, halollik va mas’uliyatni ta’minlash bilan qaror topadi. Shuningdek, inson har qanday vaziyatda mustaqil fikrlashi, haqiqatni yolg‘ondan ajrata olishi va o‘z huquqlarini anglashi zarur. «Molxona» asari ana shu jihatlari bilan o‘quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi hamda bugungi kunda ham o‘zining tarbiyaviy va ma’naviy ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Orwell, Jorj. Molxona. — Toshkent: Nihol, 2018. — 100 bet.

2. Orwell, George. Animal Farm. — London: Secker and Warburg, 1945. — 92 sahifa.

3. Umurov, H. Adabiyot nazariyasi. — Toshkent: Sharq, 2003. — 256 sahifa.

